



IJTIMOIIY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI

Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna

Guliston davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6809590>

ARTICLE INFO

Received: 28th June 2022

Accepted: 01st July 2022

Online: 08th July 2022

KEY WORDS

kompozitsiya,

kompozitsion markaz,

muvozanat, yaxlitlik,

mutanosiblik, badiiy ijod..

ABSTRACT

Kompozitsiya fani ma'no-mazmuni hamda qonun-qoidalarini to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kompozitsiya haqidagi tushunchalar juda keng va qamrovli ma'nolarga ega bo'lib, bunda deyarli barcha san'at turlarining asosini tashkil qiladi. "Kompozitsiya" atamalarini lotin tilidan olingan bo'lib, tuzilish, birlashish, foydalanish, bog'lanish ma'nolarini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ijodkor g'oyasini tomoshabinga aniq, oson tez yetib borishiga xizmat qiladi [1:20]. Kompozitsiya usullari musiqa, teatr, fotografiya va albatta tasviriy san'at bilan aloqador sohalarida mavjuddir. Uning usullari kompozitsiyaning qismlar muvozanati, ritmi, simmetriya va assimetriyasi, syujetli kompozitsiya markazini ifodalanishi kiradi.

Kompozitsiyada ishlangan asarlar tomoshabinning yodida uzoq saqlanib qolishi sabablaridan biri, bu mavzuning aniq, to'liq, mazmunan mukammallik, tushunarlik bilan ifoda etilganligi hisoblanadi. Albatta biror asarni yishlashda ijodkordan ko'plab bilim, mahorat ayniqsa

mehnat talab etiladi. Rassom kompozitsiyada asar ishlar ekan, u avvalo shu asar mavzusida uning barcha qonun qoidalarini va amallariga rioya qilishi kerak bo'ladi, bunda asosan chiziqli respunktura qurilishi, fazoviy holatlari, atrof-muhit ko'rinishi realistik tarzda aks ettirilishi lozim. Kompozitsiyaning yaxlitlik qonuni, tipiklashtirish (hayotiylik) qonuni, qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni, kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog'liqligi qonuni mavjud. Agar kompozitsiyaning biror usullari e'tiborsiz qoldirilsa, umumtasviriy jihatlar bo'sh, ta'sirsiz chiqishi mumkin. Har qanday kompozitsiyada dastlab uning eskizi chizib olinadi. Eskizning asosiy vazifasi badiiy obrazni izlashda tasavvurning ifodali chizishiga, ishonchligiga erishishdan iborat bo'ladi. Asosiy fikr kompozitsiyada muhim hisoblanadi, eskiz chizayotgan paytda g'oya tushunarli bo'lsa, asar ishlangandan so'ng kompozitsiyaning asosiy g'oyasi



tomoshabinga aniq, to'liq yetib boradi, bordi-yu umuman tushunarsiz bo'lsa, unga chizayotgan paytda hech qanday detallar yordam bermaydi. Tasvirda simmetriya, assimetriya, tenglik va ritm, tuzilishining maqsadga muvofiqligi, shakllarning xilma-xilligi, ranglar yaxlitligi, ko'rish nuqtasi, masshtab, o'lcham va hajm kabi kompozitsiya elementlarini g'oya va fikrga birlashtiradi.

Notyurmort kompozitsiyasida asarda o'ng va chap tomonlarining bir xilligi, barglarning, mevalarning ham simmetrik tuzilganligi tenglik haqida tushunchani beradi. Simmetrik shakl aniq markazga ega bo'ladi. Tekislikda assimetrik, ya'ni markazlashtirilmagan kompozitsiyada tenglik ongli ravishda susaytiriladi yoki umuman bo'lmaydi. Kompozitsiyaning frontal, hajmiy va chuqurlashgan fazoviy turlari bor. Frontal kompozitsiyaning oddiy xildagi ko'rinishi tekis kompozitsiya hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi elementlar orasidagi farqni shu bilan birga ularni birligiga erishish bilan qurishda shakllantirib borishdir. Hajmli kompozitsiya har doim atrof-muhit bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Bunda muhit va kompozitsiyaning ifodaliligini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Kompozitsiyaning bu turida uch o'lchamli bo'lib, ularni har tomondan kuzatish mumkin. Chuqur fazoviy kompozitsiyada esa ko'proq turar joy va jamoat binolarini ichki qismini tasvirlanadi. Bundan tashqari dekorativ, dastgohli, shriftli, musiqali, adabiy, sahnaga oid kadr, hajmli arxitekturaviy kompozitsiyalar ham bor.

Kompozitsiya o'ziga xos qonun va vositalardan tashkil topgan, uning asosiy qonunlariga muvozanat va umumiylik kiradi. Muvozanat simmetrik va assimetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon

bo'ladi. Muvozanatda elementlar miqdori, shakli, ularning muhit bilan o'zaro munosabati rangi fakturaviy yechimining uyg'unligi bilan erishiladi [2:4]. Rassom biror – bir asar ishlar ekan, o'zining faraziy ko'rish qobiliyatidan kelib chiqqan holda biror g'oya ustida fikr yuritadi. Kompozitsiyada rasm chizayotgan paytda u o'z asarini mukammal yarata olishi, tasavvuridan barcha g'oyali kartinada joylashtira olishni istaydi, albatta bu uning mahoratiga va dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi. Kompozitsiyada turli jozibador, ma'no va mazmunli yechimlar mavjud bo'lib, asardagi xarakterlar ustida rassom ishlarkan, unda umumiy yaxlitlik va turli xillilik yo'nalishlariga qat'iy rioya qilinadi. Rassomlar o'z ijodlari davomida asaridagi turli jo'shqinlik, his-hayajonni uyg'otishga, qo'lga moyqalam yoki qalam olar ekan, o'zining ichki tuyg'ularini qog'ozga bayon etishni, doimo san'at asarlarini chizayotganda mashqlar orqali, kerak bo'lsa, kompozitsiya yangiliklarini rivojlantirishga, oddiy narsalardan go'zallikni baxida etishni, kontrast changlardan foydalanib, yorug'lik va qorong'ulik, ruhiy ko'tarinkilik va harakatlar orqali ifodalab, tasviriy san'atning sir-asrorlarini mukammal o'rganishga intiladi.

Badiiy ijod tajribasi shakllanishi mobaynida kompozitsiyaning asosiy izchil, mukammal qonun-qoidalari va vositalari hamda ishlab chiqishga sharoit yaratib berdi. Shu jumladan, olimlar tomonidan har qanday san'at asarini his qilishda zarur bo'ladigan go'zallikning prinsiplari ishlab chiqilgan. Ular odatda san'at nazariyasida, badiiy va kompozitsion ifoda vositalari, xususan nur va soya, kontrast, simmetriya, nisbat, plastiklik, ritm, tonallik, dinamika, hajmlilik, arxitektonika, uyg'unliklar deb



yuritiladi [3:5]. Ijodkor rasm chizar ekan, u kompozitsiya tuzishda tinmay izlanadi, o'zgaradi, kitoblar o'qiydi, bilimlarini o'stirish orqali dunyoqarashini kengaytiradi va bu tasviriy san'at hayotining mazmuniga aylanib qoladi. Masalan, kompozitsiyada manzara chizar ekan, u tabiatni tasavvur qilib, ko'z oldiga keltirgan holda his-hayajonlari orqali uni jonli tarzda, qiziqarli va jozibali tasvirlashga harakat qiladi. Inson buyumlar guruhiga nazar tashlasa, doimo nimanidir ajratib, alohida yaqqol ko'radi, nimanidir esa yaxshi ilg'amaydi, ana shu ko'rish markazida bo'ysunadi. Ko'rish obrazining bu markaziy qismi eng kuchli yorug'lik va ranglar kontrastiga ega bo'ladi. Rassom chizgan kompozitsiyasiga nazar solganda, ko'rish maydonining chekka joylarida detallarning aniqligi, yorug' soya va ranglarning kontrasti, kamayib borganligi uning ko'rish qobiliyati bu xususiyatlarini hisobga olib, unga moslashtirishga va kompozitsiya markazini ajratishga harakat qiladi. Kompozitsiya tuzishga mohir bo'lgan va uni o'z asarlarida mukammal darajaga olib kelgan mo'yqalam ustalari ko'p bo'lib, ularga: Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, A.Dyurer, Rafael, Tintoretto, A.Ivanov, K.Bryulov, I.E.Repin va boshqalardir. O'zbek rassomlaridan esa O'.Tansiqboyev, I.Ikromov, J.Inog'omov, Ch.Axmarov, A.Abdullayev, R.Axmedov, R.Choriyev, I.Jabborov, J.Umarbekov, A.Ikromjonov, B.Jalolov, O.Qozoqov va boshqa ko'plab ijodkorlar kompozitsiya ustalari hisoblanadi. Kompozitsiyada tasvirning lo'ndaligi, ortiqcha narsalarning cheklanganligi, ranglarning o'zaro muvofiqligi, uyg'unligi orqali asarda keng qamrovli mazmun-mohiyat aks etadi. Kompozitsiya uchun qulay, qiziqarli ko'rinishlarni tanlash har doim ham oson

kechmaydi. Chunki bu ko'rinishlarni ko'pchilik rassomlar o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda turlicha ifodalaydilar. Tajribali rassomlar kompozitsiyada o'z fikr tuyg'ularini ifodalagan chiziqlardayoq ularning asarlari boshqalarnikiga qaraganda ajratib turganligi bilinadi. Ular tasavvuridagi barcha hissiyotlarini o'z asarida ishlaydi. Oddiy jism va narsalardan go'zallikni ko'ra bilish, rassomning fikr-tuyg'ularini o'stiradi va kompozitsiyaini mukammallashtiradi.

Rassomlar asrlar davomida kompozitsiyaning ifodalovchi shartli tasvirlarni (uchburchak, piramida, aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak va shu kabilar) izlab keladi. Bularni misollarda ko'rish mumkin; G'. Abduraxmonov "Katta tikuvchi qiz", J.Umarbekov "Olis bolalik", M.To'xtayev "Oila", J.Inog'omov "Tinchlik bo'lsin uyingda". Qandaydir bir harakatlar o'zgarmaydigan obrazni ko'rsatish uchun tutashtirilgan yopiq, muvozanat (harakatsizlik) asosiy yo'nalish markaziga tortiladi. Aylana, kvadrat, to'g'riburchak shakli simmetriyasini hisobga olgan holdagi qurilishi kerakli yechimini beradi [4:210]. Kompozitsiyani shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham rassom u yaxlit bir ko'rinishiga ega ekanligini his qila olishi kerak. Kompozitsiyada rangni nozik his qilish, badiiy did, katta amaliy tajriba va rangshunoslik qonuniyatlarini bilishni talab qiladi. Badiiy obrazni izlashda tasavvurning ifodaliligi, ishonchliligiga erishish, asosiy fikr kompozitsiyada yetakchi bo'lishi muhim sanaladi. Rassomning dunyoqarashi, badiiy ifodalilik, rang munosabatlarini ham sezishni, aniqlik, chiroyli va qiziqarli kompozitsiya ishlashga, xarakterli



nisbatlari to'la aks ettira olayotganligi borayotganligidan dalolat beradi.
uning asta-sekin malakasi ortib

References:

1. R.Hasanov. Tasviriy san`at asoslari. T.: 2009 y.
2. D.A.Nazilov, I.V.Dmitriyeva, N.X.Xadjibayeva. Kompozitsiya asoslari. T.: "Yangi asr", 2009 y.
3. A.Egamov Kompozitsiya asoslari 5-9 sinflar. San`at jurnali nashriyoti. T.: 2005 y.
4. S.Abdirasilov. Tasviriy san`at o`qitish metodikasi. T.: 2012 y.